



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 1

Published: 08.01.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

O‘ZBEKSTONDA AYOLLAR “UY XIZMATI”NI RIVOJLANISHI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Rabiev Bobomurod Bahadirovich

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi doktoranti

Uzbekistan

rabiev2022@adu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-2036-179X>

Annotatsiya: Tadqiqot natijalariga ko‘ra uy xizmatchilarining katta qismi ushbu faoliyatni boshlashdan oldin ishsiz yoki uy bekalari bo‘lganliklarini ko‘rsatdi. Shuningdek, ularning aksariyati uy ishlarida yordamchi sifatida ishlashsa, 28,7 foizi bola parvarishi bilan, 20,4 foizi qariyalarga qarash bilan shug‘ullanishadi. Uy xizmatchilari kasb sifatida doimo mahorat talab etishini tan olishadi, lekin ayrim hollarda bu faoliyat mahorat talab etmasligi mumkinligini ham ta’kidlashgan.

Kalit so‘zlar: Uy xizmatchisi, Enaga, Qariyalarga g‘amho‘rlik, ijtimoiy yordam, ish beruvchilar, turli xil soha vakillari, mexnat birjalari.

Аннотация: Исследование показало, что значительная часть домашней прислуги была безработной или домохозяйкой до того, как они начали заниматься этой деятельностью. Кроме того, хотя большинство из них работают в качестве домашней прислуги, 28,7% занимающиеся уходом за детьми и 20,4% - за пожилыми людьми. Домашняя прислуга признает, что как профессия она всегда требует навыков, но также отмечает, что в некоторых случаях эта деятельность может и не требовать навыков.

Ключевые слова: домашняя прислуга, няня, уход за пожилыми людьми, социальная помощь, работодатели, представители различных отраслей, биржа труда.

Abstract: The study showed that a significant proportion of domestic workers were unemployed or homemakers before they started this activity. In addition, although most of them work as domestic workers, 28.7% care for children and 20.4% care for the elderly. Domestic service recognizes that as a profession it always requires skills, but also notes that in some cases this activity may not require skills.

Keywords: domestic help, babysitter, care for the elderly, social assistance, employers, representatives of various industries, labor exchange.

Language: Uzbek

Citation: Rabiev , B. (2025). THE DEVELOPMENT OF WOMEN’S "DOMESTIC SERVICE" IN UZBEKISTAN AND INFLUENCER FACTORS. Universal International Scientific Journal, 2(1), 49–53. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1398>


Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14619182>

Google scholar: https://scholar.google.co.in/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=O%27ZBERISTONDA+AYOLLAR+UCHUN+%22MAISHIY+XIZMAT%22+NING+RIVOJLANISHI+VA+TA%27SIR+ETUVCHI+OMILLAR&btnG=

Kirish: So‘ngi yillarda mamlakatimizda barcha jabhalarda rivojlanish bo‘lgani kabi uy xizmati sohalarida o‘zgarishlar va unga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa xorijiy mamlakatlar singari oilalarda enaga, uy yordamchisini mavjudligi, shuningdek, internet texnologiyalari, globalizatsiya, oilalarning daromadlarini ortishi,

demografik o‘zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

Tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizdagi rekruting kompaniyalari va internet ish elonlari natijalariga ko‘ra uy xizmatchisi va unga bog‘liq kasblarga bo‘lgan ehtiyoj so‘ngi besh yilda keskin ortgan quyidagi jadvalda buni ko‘rishimiz mumkin.



1-Diagramma. Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar 2024 yil hisobidan

Ijtimoiy tarmoqlar orqali va mehnat birjalari tomondan o'rganilgan manbalarga tayanib aytsak yuqoridagi kasblarga talab katta hisoblanadi. Marketologlar, dasturchilar, buxgalterlar yuqori reytingda tursada, farroshlar, tikuvchilar, enagalar o'rta reytingda, ingliz tili o'qituvchisi, ofis menejeri kabi sohalar bilan bir qatorda ko'rishimiz mumkin. Bu esa yaqin kelajakda diagrammada ko'rinib turibgandek O'zbekistonda ham uy xizmati sohalariga bo'lgan talab yuqori bo'ladi deb taxmin qilish mumkin.

Respublikamizda ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga qaratilgan say-xarakatlar ijobiy natija bermoqda. 2022 yil 28 oktyabrdan, Uy xo'jaligi xodimlarining ishlagan davrlari ijtimoiy soliq to'lash sharti bilan xodimning ish stajiga kiritildi va bu qonun O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi alohida bandlar bilan belgilab berildi.

Respublikamizdagi ish beruvchi internet manbalari va mehnat birjalari malumotlariga ko'ra uy xizmati uchun eng yuqori maosh hozirda Toshkent shahriga to'g'ri keladi enaga uchun 5-7 mln gacha, uy yordamchisi uchun 6-7 mln gacha qariyalarni parvarishlash uchun esa 5-8 mln gacha xaq to'lanmoqda. Tajriba, hamshiralik diplomi yoki sertifikat bo'lsa yanada ko'proq maosh olish imkoniyatga ega.

Mamlakatimizning boshqa viloyatlarida masalan Andijonda enagalik uchun 2-3 mln so'mgacha qariyalarni qarash uchun 3-4 mln uy ishlarida yordamchi uchun kelishgan holda maosh olib ishlayotganlarni ko'rishimiz mumkin. Uy xo'jaliklarda yordamchi tushunchasi turli mintaqalarda turlichadir. Ular xizmatidan yirik shaxarlarda, ko'p qavatli uylarda xaftada bir marotaba foydalanilsa, chekka xududlarda mol ko'y

boqiladigan ferma ishchisi sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Bunda xam uy xujalik yumushlarida faoliyat ko'rsatib ish beruvchi tomonidan uy-joy, oziq-ovqat bilan taminlanadi. Bu xo'jalik yordamchilarning oyligi 4-6 mln gachadir.

Rossiyaning ish beruvchi saytlaridagi mashhur ijtimoiy tarmoqlardan biri HeadHunter.ru eng kam oylik oluvchi kasblar va ro'yxatidagilarni elon qildi va bunga ko'ra:

1. Rassom.
2. Xavfsizlik xodimi.
3. Aktyor, Animator
4. Zoopsixolog.
5. Kutubxonachi
6. O'qituvchi,
7. Tarbiyachi,
8. Enaga.
9. Farrosh.
10. Tozalovchi (Dvornik)

Yuqoridagi kasblar 2024 yil uchun eng kam haq to'lanadigan kasblar qatoriga kiradi. Lekin oylik kam bo'lishiga qaramay ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra Moskva va Sankt-Peterburgdagi har beshinchi oilaning uy xizmatchisi bor. Ikki poytaxtdagi oilalarning deyarli beshdan bir qismi yollangan ishchilar xizmatidan foydalanadi. Bundan tashqari, aksariyat ish beruvchilar kam daromadli odamlardir. Ko'pincha ular yordamga muhtoj oila azolari uchun shuningdek, qariyalar va bolalarga qarash maqsadida uy xizmatchisi yollashadi. Uy xizmatchilarning 14 foizi migrantlar hisoblanadi. Ayollar uy xizmati mehnat migratsiyasining ahamiyati borasida shuni ta'kidlash lozimki. Migrant ayollarning uy xizmati faoliyati, Rossiya aholisi uchun hamda boshqa xizmatlardan ancha arzon. Bu nisbatan kam daromadli oilalar ham uy xizmati mehnatidan foydalanish imkonini

beradi .

Tadqiqotlardan malum bo'lishicha. O'zbekistondan boshqa davlatlarga ish izlab chiqayotgan migrantlarning 43 foizdan ortig'i o'rta malumotli, 29 foizi tugallanmagan o'rta malumotlilar tashqil qiladi . Shu o'rinda aytish lozimki Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Andijon filiali mamuryati bergan hisobotiga ko'ra ayrim yurtdoshlarimiz filial xizmatlaridan foydalanmaydi. Chunki chikish tartibiga ko'ra mehnat migratsiyasi uchun chet elga ketayotgan shaxslaring majburiy kasb tayorgarligi hamda til sertifikatini talab qilinadi. Shu sabab ko'pchilik fuqarolar xavfsizligini o'ylamay, Rossiya yoki Qozog'istonga borishni afzal ko'radi.

Prezidentimiz ko'tarib chiqqan dolzarb masalalardan biri. O'zbekistonni yanada rivojlantirish, uni rivojlangan 50 ta mamlakat qatoridan o'rin olishiga erishish, xalqning hayot farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirish, kambag'allikka barham berish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi tashabbuslarining hayotga tadbiiq etishning faol ishtirokchilari sifatida uy xizmati mehnat migratsiyasi ishlayotgan vatandoshlarimiz o'rni beqiyosdir.

XULOSA

1.O'tkazilgan tadqiqotlardan so'rovnomadan shu narsa ayon bo'ldiki, xalqimiz orasida uy xizmatiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Sohani rivojlantirish va ushbu kasb bo'yicha faoliyat olib borayotgan ayollarini uchun imtiyozlar joriy qilish lozim.

2. Hozirda respublikamizda 4 (10-11foiz) mlndan ortiq pensiyanerlar bor bo'lib Shahar markazlarida yashaydgan qariyalar uchun maxsus sog'lomlashtirish markazlari fintes, basseyn, sport zallar qurish. Qariyalarni parvarishlash kasblarini taraqqiy etishiga olib keladi.

3. Qariyalarining ehtiyojiga mos ravishda tovar va xizmatlar assortimentini taklif qilish va qariyalar uylarini qurish kerak Xozirda Andijonda 1 ta qariyalar uyi bor va aholisi eng zich bo'lgan viloyat uchun bu kam hisoblanadi. Bu esa xorijda qariyalarni parvarishlab Turkiya, Germaniya, BAA, Isroil tajribasiga ega uy xizmatchilarini ish bilan taminlab, tajribalaridan foydalanishlik eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

5. Uy xizmati ishchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ular uchun munosib mehnat sharoitlari, dam olish vaqti va ijtimoiy kafolatlarni kafolatlash zarur. Migrant ayollarni ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'yilmasligi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Inson huquqlari Bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6012-son Fapmoni 2020 yil 22 iyun.

2. «Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni haqida. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senatining SQ-617-IV-son Qarori. 2022 yil 13 sentyabr.

3. Гонтмахер, Е. Мировые миграционные процессы: необходимость глобального регулирования//Вопросы экономики. 2013. № 10. С. 136–146,

4. Abduramanov X.X. O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 69 b.

5. Rabiev B. B. PERSPEKTIVYI UChASTIY a DOMAShNIX RABOTNIKOV SFERYI USLUG V UZBEKISTANE //Ekonomika i sotsium. – 2024. – №. 8 (123). – S. 375-384.

6. Martin Susan. Towards a global migration regime//Georegtown Town Journal of International Affairs. Vol.1. No.2.2002.P.120.

7. Freeman G. Immigrant labour and racial conflict in industrial societies: the french and british experiences. Princeton, 1979.

8. G.R. Barnoyeva. Xalqaro Mehnat Migratsiyasi Jarayonlarida Muhojir Ayollarning O‘rni/ philosophy&law journal 2023/2

9. Исакулов Ш. Н. Проблемы выработки идеологического иммунитета трудовых мигрантов Республики Узбекистан / Ш. Н. Исакулов // Общественное мнение и права человека. –2018. –No 1. –С. 59.

10. Rabiyeu , B. . (2024). SOCIO-ECONOMIC ASPECTS OF WOMEN’S DOMESTIC SERVICE MIGRATION. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(32), 30–35. izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50141>